

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019-yil yanvar-mart

RAQAMLAR:


- 2019-yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari hajmi 1197,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati 154,6 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 651,4 ming. so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.


2019-yil yanvar-mart oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1197,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,4%ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (27,3%) tashkil etadi.

2019-yil yanvar-mart oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan), %



**2019-yil yanvar-mart oylarida ayrim xizmat turlari hajmining
taqqoslanishi, mlrd. so'm**



Joriy yilning yanvar-mart oylarida oldingi yilning yanvar-mart oyiga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (62,3 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (29,2 mlrd. so'mga) va moliyaviy xizmatlar (64,8 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2019-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	1197,5	112,4
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	69,7	95,7
moliyaviy xizmatlar	182,4	153,4
transport xizmatlari	306,2	101,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	292,8	100,6
yashash va ovqatlanish xizmatlari	30,5	112,6
savdo xizmatlari	326,4	109,1
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	38,4	102,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	67,7	154,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	22,4	110,7
ijara xizmatlari	26,5	101,0
kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	44,8	107,9
shaxsiy xizmatlar	39,3	100,2
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	11,9	103,2
boshqa xizmatlar	31,3	114,1

**2019 yil yanvar-mart oylarida tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xorazm viloyati	1197,5	112,4
Urganch shahri	600,3	116,7
Xiva shahri	37,8	112,6
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	52,4	106,4
Gurlan	54,9	105,9
Qo'shk o'pir	47,0	100,9
Urganch	105,6	120,7
Hazorasp	74,5	105,7
Xonqa	57,9	109,0
Xiva	38,3	105,0
Shovot	49,3	106,2
Yangiariq	41,8	106,8
Yangibozor	37,5	104,0

Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lif va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

2019-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2019-yil yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan ta'lif sohasidagi xizmatlar (154,6%), moliyaviy xizmatlar (153,4%), boshqa xizmatlar (114,1%), yashash va ovqatlanish xizmatlari (112,6%) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Tumanlar o'rtasida Urganch shahri (600,3 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Urganch shahri bo'yicha 116,7% ni tashkil etdi.

Eng kichik hajm Yangibozor tumanida (37,5 mlrd. so'm), Xiva shahri (37,8 mlrd.so'm) va Xiva tumanida (38,3 mlrd. so'm) kuzatildi.

2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan, 2019 yil yanvar-mart oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Urganch tumanida (120,7%), Urganch shahri (116,7%) va Xiva shahri (112,6%) qayd etildi.

2019 yil yanvar-mart oylarida tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Eng kam ulush

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar
3,2 %



Boshqa xizmatlar
2,6 %



Yashash va ovqatlanish xizmatlari
2,5 %



Ijara xizmatlari
2,2 %



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
1,9 %



Me'morchilik sohasidagi xizmatlar
1,0 %



Eng katta ulush

Savdo xizmatlari
27,3 %



Transport xizmatlari
25,6 %



Moliyaviy xizmatlar
15,2 %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
5,8 %



Ta'lim sohasidagi xizmatlar
5,7 %



Kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash
3,7 %



Shaxsiy xizmatlar
3,3 %




Hozirgi vaqtida savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiylajmi hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2019 - yil yanvar - mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 326,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiylajmi hajmidagi ulushi 27,3%ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 62,3 mlrd. so'mga oshdi.

2019 - yil yanvar - mart oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 74,6%ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 18,2%ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan tashqari chakana savdo xizmatlari hajmida 7,2%ni egallaydi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovations bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 182,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 153,4%ni tashkil etdi.

2019 - yil yanvar - mart oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi,%



Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (92,0%) katta salmoqqa egadir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 78,0% ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 22,0%ga to'g'ri keladi.

2019 - yil yanvar - mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining tarkibi,%




2018 - yil yanvar - mart oylari bilan taqqoslaganda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ulushining ko'payish omillaridan biri viloyatda turizm faoliyatni rivojlantirish hisoblanadi. Jahonga mashhur Xiva shahrining tarixiy yodgorliklari, zamonaviy shaharlar, O'zbekistonning betakror tabiatni, noyob milliy taomlari, shuningdek, xalqimizning betakror mehmono'stligi sayohatchilarni o'ziga jalg qiladi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati esa 112,6%ni tashkil etdi.

Ta'lrim sohasidagi olib borilayotgan islohatlar avvalam bor insonlar ongini va fikrlash doirasini kengaytirishga hamda ma'naviyatini yuksaltirishga yordam bermoqda.

2019 - yil yanvar - mart oylarida ta'lrim sohasidagi xizmatlar hajmi 67,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 5,7%ni tashkil etdi.


Ta'lrim sohasidagi xizmatlar hajmi va o'sish sur'atining taqqoslanishi



O'tgan yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda ta'lrim sohasidagi xizmatlarning hajmi 28,4 mlrd. so'mga oshdi.

Xorazm viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda. 2019-yil yanvar-mart oylarida 651,4 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 114,8 ming so'mga oshdi va o'sish sur'atlari 110,5% qayd etildi.

**2019 - yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha
aholi jon boshiga ko'rsatkichlar**




Tumanlar o'rtasida Urganch shahri (4230,6 ming.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Urganch shahri bo'yicha 115,4%ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan eng kichik hajm Xiva tumanida (268,4 ming. so'm), Qo'shko'pir tumanida (278,6 ming. so'm) va Shovot tumanlarida (296,1 ming. so'm) kuzatildi.

2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan, 2019 yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Urganch tumanida (118,4%), Urganch shahri (115,4%) va Xiva shahri (110,7 %) qayd etildi.

2019 - yil yanvar-mart oylarida tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Mas'ul: U.Bardiyev**